“O‘zaviatsiya” agentligining
01-39/1-1026-son xatiga
Ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha NAZORA REJASIning ijro holati to‘g‘risida

# MA’LUMOT

2024 yil 26 mart holatiga

| # | Farmon bandi | Ijro muddati | Ma’sul ijrochilar | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **1-Ilova 1-band.** 2024 yil 1 martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste’dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasi qarori bilan «Yoshlar balansi» asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilsin. **Bunda mazkur rahbarlar:** | 2024 yil 1 mart | O.Lim<br>R.Nabiev<br>**R.Gulyamov** | **Bajarilgan.**<br>1. “O‘zaviatsiya” agentligining **2024 yil 12 martdagi 01-39/1- 904 -son** xati bilan Toshkent davlat Transport universiteti rektori O.K.Abduraxmanovga aviatsiya sohasida tahsil olayotgan iste’dodli va iqtidorli bir nafar talaba nomzodi taklifini berish to‘g‘risidagi so‘rov xati yuborildi.<br>2. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi Toshkent davlat Transport universitetining **2024 yil 16 martdagi 14-01/1411-son** xatiga muvofiq Toshkent davlat Transport universitetining aviatsiya sohasida tahsil olayotgan 60712600-Havo kemalarining texnik ekspluatatsiyasi bakalavr ta’lim yo‘nalishi, sirtqi ta’lim shakli 3-kurs SHKTE-3 guruh talabasi **Shodmonov Samariddin Sadirovich** nomzodini tavsiya e’tildi. |
| 2. | **1-Ilova 1.2-band** har oyda kamida bir marotaba o‘zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarga o‘qitish orqali bandligini ta’minlash, hayotda o‘z o‘rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini | 2024 yil Har oyda bir marotaba | O.Lim<br>R.Nabiev<br>**R.Gulyamov** | **Bajarilmoqda.**<br>1. “O‘zaiatsiya” agentligi direktori hamda Toshkent davlat Transport universitetining aviatsiya sohasida tahsil olayotgan 60712600-Havo kemalarining texnik ekspluatatsiyasi ta’lim yo‘nalishi talabasi **Shodmonov Samariddin Sadirovich** bilan uchrashuv har oyning **5 sanasiga** belgilandi. |

| # | Farmon bandi | Ijro muddati | Ma’sul ijrochilar | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|---|---|
| | yuksaltirishga har tomonlama ko‘maklashib borsin; | | | |
| **3.** | **1-Ilova 1.3-band.** o‘zlariga biriktirilgan yoshlar muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun tegishli tashkilotning byudjetdan tashqari mablag‘lari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan zarur mablag‘larni Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida yo‘naltirishga ruxsat etilsin. | 2024 yil<br>1 aprel | O.Lim<br>Sh.Sharifbaeva<br>Sh.Burxonov | **Bajarilmoqda.**<br>1. Biriktirilgan talabaning moddiy qo‘llab-quvatlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda va “O‘zaiatsiya” agentligi direktori hamda talabaning uchrashu yakunlari boyicha taklif kiritilishi rejalshtirilgan. |
| **4.** | **1-Ilova 27-band**. Keng jamoatchilik vakillari va ekofaollarning ekologiyaga avtomobillar chiqindi gazlarining zararli ta’sirini kamaytirish uchun Toshkent shahrida har oyning bir ish kuni davomida avtomobillar harakatlanishini (jamoat transportlari, maxsus va shoshilinch yordam xizmatlaridan tashqari) qisqartirishga qaratilgan «Avtomobilsiz kun» jamoatchilik loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin. | 2024 -2030 yillar davomida | **T.Nazarov**<br>Boshlang’ich kasaba uyushmasi,<br>Jamoatchilik kengashi,<br>Barcha xodimlar | **Bajarilgan.**<br>1. “O‘zaviatsiya” agentligi direktorining topshirig’iga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabusslarini qollab-quvatlash maqsadida oyning oxirgi jumasi **“Avtomobilsiz kun”** deb elon qilingan.<br>Bugungi kunda ma’sullar tomonidan olib borilgan monitoring ishlariga tayangan holda xodimlar tomonidan mazkur tashabuss to‘liq qabul qilinganligi va qollab-quvatlanganligi aniqlandi. |
| **5.** | **32.3-band** Davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakatining mazkur band ijrosi bo‘yicha faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashib borsin. | 2024 yil<br>25 mart | O.Lim<br>R.Nabiev<br>**R.Gulyamov** | **Bajarilmoqda.**<br>1. Davlat dasturida belgilangan topshiriqlari amalga oshirilishini, shu jumladan joylarga chiqib, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda tanqidiy o‘rganib borish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga to‘liq va sifatli axborot kiritshga ma’sul bo‘lgan **“Taraqqiyot strategiyasi”** va **“Yuksalish” harakati** markazlariga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida “O‘zaviatsiya” agentligi tomonidan o‘z vakolatlari doirasida har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatishga tayyorligi to‘g‘risida |

| # | Farmon bandi | Ijro muddati | Ma’sul ijrochilar | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|---|---|
| | | | | xatlar yuborildi (01-39/1-905-son, 01-39/1-906-son xatlar). |